



Received: September 20, 2021
Accepted: November 15, 2021
Available online: December 25, 2021

Gulnoz Mamarasulova

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Buxoro, O'zbekiston

Gulnoz Mamarasulova

Doctor of Philosophical Sciences in Philology
Bukhara, Uzbekistan
E-mail: gmamarasulova@gmail.com

ILK INGLIZ ROMANTIZM DAVRI (XVIII–XIX ASRLAR) ADABIYOTIDA ORIENTALIZM HODISASI

ANNOTATSIYA

XVIII asrda inglizlarning Sharqni o'rganishga bo'lgan qiziqishi tobora ortdi. Orientalizm – madaniy hodisa sifatida ahamiyat kasb etib, arxitektura, bog'dorchilik, san'at va adabiyotga ham beqiyos ta'sir ko'rsatdi. Adabiyotda ijodkorlar uchun yangicha muhit va kayfiyat yaratib, sharqona xususiyatlarni o'ziga jo qilgan ko'plab asarlar dunyoga keldi. Sharqning Angliya adabiyotiga qo'shgan eng katta hissi – ijod ahlini eskicha fikrlashdan chalg'itib, mutlaqo yangicha dunyoqarashni taqdim etganidir.

Asrning birinchi yarmida yozuvchi va shoirlar sharqona talqin orqali o'z madaniyatida uchraydigan be'maniliklarni hajviyaomuz usulda qalamga oldilar. Sahnada asarlarida esa odamzotning gunohlari uchun jazo muqarrarligiga urg'u berilib, o'sha zamonning chirkin ishlariga e'tibor qaratildi. Biroq XVIII asrning keyingi yarmida ijodkorlarning diqqatini, asosan, Sharqning ekzotik manzarasi va undagi g'ayrioddiy bo'lib tuyulgan hodisalar egalladi. Shu tarzda she'riyatda ilgari qo'llanmagan sharqona ohang va uni ifodalashning yangi usullari, bezaklar va qiyofalar kerak edi. Sahnada fantomimo va melodramaga qiziqish ortib, zeb-ziynatlar bilan bezalgan liboslar va hashamdor manzaralar tasvirlangan dramalar paydo bo'ldi.

Mazkur maqolada Yevropa ma'rifatparvarlik davrining asosiy xususiyatlarini o'rganish asnosida, romantizm harakati paydo bo'lishidagi ayrim omillar va ikki oqim o'rtasidagi farqlar aniqlangan. Ma'rifatparvarlik davri adabiyotida boshqa unsurlarga qaraganda aynan mantiq va aql-idrok

THE PHENOMENON OF ORIENTALISM IN THE LITERATURE OF THE EARLY ENGLISH ROMANTICISM (XVIII-XIX CENTURIES)

ANNOTATION

In the eighteenth century, English interest in exploring the Eastern world had increased tremendously. Orientalism was recognized as a cultural phenomenon and it had a great influence on architecture, gardening, art and literature as well. As for the poets and writers, the oriental environment created a different mood and new modes of expression that inspired them to compose works with the eastern motifs. The main contribution of Orientalism to English literature was a distraction of the poets' mind from outdated ideas and filling it with fresh views.

In the first half of Romanticism, the authors portrayed bad manners that belonged to their own culture in satirical verses with the help of oriental peculiarities. During this period, drama plots depicted the inevitability of punishment for sinners and disgusting things. But in the next part of the eighteenth century, poets focused their attention mainly on the exotic and mysteriousness of the East. Therefore, in order to present Oriental features, there was a strong need for fresh shapes, ornaments and figures that had never been used before. On the stage, the fondness for pantomimes and melodramas became progressively greater. In English Romantic literature, dramas appeared with completely ornamented customs and fanciful decorations.

Through this article, while reviewing the main features of the European Enlightenment, it is possible to understand some of the factors that led to the emergence of the Romantic

muhim ahamiyat kasb etadi va romantizmga xos his-tuyg'uga asoslangan qarashlarga deyarli urg'u berilmaydi. Ma'rifatparvarlik davri g'oyalari ko'ra, inson va uning munosabatlari, uning jamiyatda tutgan o'rni, avvalo, ilmiy nuqtai nazardan kelib chiqib shakllantirilishi lozim.

Romantik davr tarixida xolislik faqat istak-xohish bo'lib qolmay, unga erishish mumkinligiga ko'pchilik qat'iy ishongan. Bu davr vakillari sub'yektiv hissiyotlar, tabiat xususidagi mushohadalar va ijodiy mayllardan ko'ra, yangi resurslar, texnika va sarmoyaga ega mamlakatning iqtisodiy infratuzilmasi haqida qayg'urish afzalroq, degan fikrlardan yiroq edilar. Shuningdek, siyosiy va iqtisodiy mavzular atrofidagi adabiy asarlar zamonning ustuvor masalalari va qadriyatlarini o'zida aks ettirardi. Xuddi shu tarzda, falsafiy asarlar ham o'z davri muammolarini yoritib, ijodkorning shaxsiy o'y-fikrlari va insoniyat tajribasiga asoslangan.

Kalit so'zlar: sharqona motivlar, ingliz adabiyoti, orientalizm, orientalist olimlar, romantizm, lirik janr, yangicha dunyoqarash, haqiqat va ong ta'siri, sharq tillari.

movement and the differences between the two trends. In the literature of the Enlightenment, it is logic and reason that are more important than other elements, and there is almost no emphasis on romantic-based sentiments. According to the ideas of the Enlightenment, a person and his/her relationships, his/her place in society, should be formed, first of all, in line with a scientific point of view.

In the history of the Romantic period, it was firmly believed that impartiality was not only a wish, that could be achieved. Representatives of this period avoided the idea that it was preferable to worry about the economic infrastructure of a country with new resources, techniques and capital, rather than subjective feelings, observations about nature and creative inclinations. Literary works on political and economic themes also reflected the priorities and values of the time. In the same way, philosophical works shed light on the problems of their time and are based on the experience of humanity, along with the personal thoughts of the creators.

Key words: the eastern motifs, English literature, orientalism, orientalist, romanticism, lyrical genre, fresh outlook, the influence of truth and reason, oriental languages.

KIRISH

Orientalizm konsepsiyasi G'arb tadqiqotchilari tomonidan Sharq falsafasi, sivilizatsiyasi, tillari, madaniy merosi, o'tmishi va buguniga oid ma'lumotlarni o'rganish hamda tadqiq qilishni anglatadi. Yevropada tarixchi olimlar o'rtasida "orientalizm" tushunchasi qachon paydo bo'lganligi bilan bog'liq bahs-munozaralar hanuzgacha davom etib, ularning ko'pchiligi O'rta asrlardanoq Sharqqa qiziqish va uni o'rganish boshlanganini qayd etishgan. Avvaliga islom dini va musulmon ahli urfodatlarini tadqiq qilgan g'arblıklar sekin-asta islomiy tamoyillar va ushbu din tarixi bilan astoydil qiziqib, arab tilini o'rgangan. Shundan so'ng Sharq xalqlarining kelib chiqishi, madaniyati, an'analari, diniy qarashlari, tabiati va eng ko'p so'zlashadigan tillarini o'rganishga navbat yetib keldi. Shu asnoda, G'arbda orientalizm, ya'ni sharqshunoslik konsepsiyasi taraqqiy etdi. Sharq dunyosidagi turli-tuman va ko'proq diniy va siyosiy motivlar sababli, o'sha davrdan to bugungi kunga qadar sharqshunos olimlarning diqqat markazini islom dini, arab alifbosi va islomiy sivilizatsiyani o'rganish egallab kelmoqda.

Orientalizm atamasi "Oxford English Dictionary" so'zlar lug'atida XVIII asrdan buyon Osiyo yoki Sharq olami, tili, dini, tarixi va madaniyatini o'rganayotgan sharqshunos olimlarning tadqiqot mavzusi va ishi ekanligi qayd etiladi. O'rta asrning

boshlaridayoq G'arbda xristian teologlari o'rtasida yahudiylar tilini o'rganishga bo'lgan qiziqish ortdi. XIII asr o'rtalarida g'arbliklar ayrim Osiyo tillarini puxta egallay boshlashdi. XV asrda Yevropaning nufuzli oliygohlarida mumtoz grek va rimlik mualliflarning arabchadan qilgan tarjimalari alohida fan sifatida o'rganildi [Martino P., 1906; 237].

“Hech shubhasiz, g'arbliklarning Sharq dunyosini tadqiq etish bo'yicha deyarli barcha jabhalardagi ilmiy izlanishlari ushbu madaniyat oldidagi ulkan qarzni oshkor qiladi. Sharqona asar – Homerning “Iliada” dostoni ko'pchilik tomonidan G'arb adabiy an'analarning tamal toshi sifatida qayd etiladi” [Gray W., 1985; 143], – deb yozadi Uellas Grey. Shuningdek, tarixchilar ham yuqoridagi fikrni qo'llab-quvvatlagan holda, anglo-sakslar qavmiga Sharqning ta'siri haqida shunday deydi: “Kelt qavmi, uning qabilaviy tamadduni, ertaklari va urf-odatlarining barchasi irland sayyohlarining uzoq Sharqdan keltirgan sharqona hikoyalari asosida gavalantirilgan” [Gray W., 1985; 143]. Ma'lum bo'ladiki, qadim zamonlardan buyon Sharq o'zining ajoyibotlari bilan G'arb dunyosini har jihatdan boyitib, Sharqqa xos donolik madaniy almashinuv sifatida g'arbliklarning ongu shuurini qamrab oldi.

ASOSIY QISM

Orientalizm konsepsiyasi turli fikrlar oqimi, har xil maktablar va qarashlar sababli turlicha talqin qilingan. Ulardan ikkitasi eng muhim ta'rif bo'lib, birinchisi – arab-musulmonlarning va keyingisi – g'arbliklar bergan ta'rifdir. Arab va boshqa musulmon olimlarining o'z dunyoqarashi va mezonlari asosida “orientalizm” tushunchasiga bergan ta'riflarida har xil yondashuvlar paydo bo'lganligi kuzatiladi. Ularning ayrimlari Hasan Hanafiy kabi g'arblik mutafakkirlarning nazariyalarini ma'qullaydilar. Hasan Hanafiy shunday deydi: “G'arbning ba'zi mutafakkirlari islomiy qarashlarni uning sivilizatsiyasi, madaniyati va ilmiy hayoti orqali ta'riflashga urinadilar” [Smalley B., 1983; 138]. Qolgan olimlar esa bu konsepsiyaga asosan diniy nuqtai nazardan yondashganlar. Masalan, Ahmed Abd Attavab orientalistlarni e'tiqodsiz deb atab, orientalizmni quyidagicha talqin qiladi: “Academic studies carried out by Westerners who are infidels – especially the People of the Book – to Islam and Muslims from various aspects, whether it is creed or the Islamic Sharia, culture, civilization, history, systems, resources and potentials...for the aim of distorting Islam, trying to question and mislead Muslims, and imposing dependency on the West and trying to justify this dependence on studies. Theories that claim scientific and objectivity and claim the racial and cultural superiority of the Christian West over the Islamic East. Not all studies are academic” [Taj M.K., 2014; 18]. Uning qayd qilishicha, g'ayridin hisoblangan g'arbliklar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar asosan turli xil nuqtai nazarlardan tortib, kitob ahli, islom va musulmonlar yohud ularning diniy aqidalari, islomiy shariat, madaniyat, sivilizatsiya tarixi, tizimi, manbalari va imkoniyatlarini o'z ichiga oladi. Tadqiqotlardan maqsad – Islomni teskari talqin qilish, musulmonlarda o'z diniga nisbatan shubha uyg'otib, noto'g'ri fikr hosil qilish, G'arbg'a tobelikni targ'ib qilib, bu qaramlikning afzalliklarini isbotlashga urinishdir. Ilmiy va dolzarb, deya bong urilgan nazariyalar, aslida, g'arblik xristianlarning sharqlik

musulmonlar ustidan irqiy va madaniy ustunligini ko'rsatishga yo'naltirilgan. Olim hamma izlanishlar ham ilmiy bo'lavermasligini alohida ta'kidlaydi.

Yevropa tarixida turli zamon va makonlarda ko'plab orientalist olimlar yetishib chiqqan. Ularni yashab ijod qilgan davrlariga ko'ra uch guruhga ajratish mumkin:

1. Ushbu bosqich "Avangard bosqich" deb nomlanib, olimlar arab mamlakatlariga borganlaridan so'ng islom sivilizatsiyasi ta'siriga tushadi. Arab tilini o'rganib, Yevropani sharqona kitoblar bilan boyitish va savodsizlikdan ularni xalos qilish uchun tarjima ishlari bilan shug'ullanishadi. Xususan, Gerbert Dyurilak (Gerbert d'Aurillac, 946–1003) ispaniyalik grafning homiyligida Kardova va Sevilya shaharlaridagi arab va musulmon muallimlari qo'lida tahsil olib, matematika va tabiiy fanlarni chuqur o'rganadi. Natijada, Yevropaga u ilk bor arab raqamlarini olib kirib, matematika va astronomiyaga oid kitoblarni tarjima qildi. Shuningdek, Konstantin Afrikanus (Constantinus Africanus, 1098) va Batlik Adelard (Adelard of Bath, 1070–1137)lar ham Sharq mamlakatlariga sayohatlari davomida tibbiyot, astronomiya, matematikaga oid manbalarni to'plab, G'arb tillariga tarjima qilgan.

2. Ikkinchi bosqich 1492-yili Ispaniyada Granada urushidan keyin boshlanib, ushbu davr Eol Giyom Blanshar (Eol Guillaume Blanchard, 1510–1581) va Jozef Skaliger (Joseph Scaliger, 1540–1609) nomlari bilan uzviy bog'liqdir. Ular Ibn Sino yaratgan asarlarni astoydil o'rganib, ayrim falsafiy va islomiy lingvistikaga oid asarlarni tarjima qilganlar. Shuningdek, Qur'onni o'qib, Yevropada arab grammatikasi bo'yicha tartib bilan tuzilgan ilk kitobni nashr etgan Tomas Van Erpe (Thomas Van Erpe, 1584–1624) [Steven W. H., 2006; 4], 1638-yili Oksford universitetida arab tillarini o'qitish bo'yicha birinchi o'qituvchi bo'lgan. O'zining "Sharq kutubxonasi" ("Bibliothèque Orientale") nomli kitobi bilan mashhur Bartelemi d'Erbelo (Barthélemy d'Herbelot, 1625–1695) ushbu asari orqali islomiy ensiklopediyani tuzishga harakat qilgan.

3. Ushbu bosqich XVIII asr oxirlariga to'g'ri kelib, bu davrda ko'plab taniqli sharqshunos olimlar yetishib chiqdi. Xususan, Lui Massinon (Louis Massignon, 1883–1962) sharq ilmini chuqur o'rganib, ko'plab sohalarda faol tadqiqot ishlarini yuritgan arab va musulmon olimlarini tayyorladi. Yana bir orientalist olim Yozef Shaxt (Joseph Schacht, 1902–1969) o'zining "Islom fiqh ilmining kelib chiqishi" ("The Origins of Muhammadan Jurisprudence", 1950) nomli asari bilan mashhur. Shuningdek, Pol A. Buazar (Paul A. Boisard), Norman Deniel (Norman Daniel), Dunkan Blek Makdonald (Duncan Black Macdonald) kabi olimlar Sharq olamini tadqiq etishga bag'ishlangan asarlari bilan Yevropada orientalizm konsepsiyasining rivoji uchun ulkan hissa qo'shdilar.

Orientalizmning asosiy konsepsiyasi atrofida g'arblik tadqiqotchilar olib borgan izlanishlar Sharqni ko'p jihatdan tadqiq etishga qaratilgan. Natijada olimlarning tadqiqotlari asosida akademik yoki universitet fan yo'nalishlari sifatida Sharq mavzusiga oid ixtisoslik yuzaga keldi. Misol uchun, Jamal ad-Afg'oniy, Muhammad Abduh, Malek Ibn Nabi, Taha Husseyn va boshqalarning tadqiqotlarini keltirish mumkin.

Ayrim mutafakkirlar orientalizmga ijobiy hodisa sifatida qarashsa, boshqalari buning teskarisini o'ylashadi. Masalan, yozuvchi Taha Xusseyn va tanqidchi Ahmed

Amin orientalistlarga tasannolar aytishgan [Assibai M., 1979; 7]. Ammo mashhur islohotchilar Jamal ad-Afgʻoniy va Muhammad Abduh hamda atoqli mutafakkir Malek Ibn Nabi orientalistlarga salbiy baho berganlar [Taj M.K., 2014, 24].

Gʻarblik olim va ziyolilarning ham orientalizm tushunchasiga bergan taʼriflari turlicha. Masalan, fransuz sharqshunosi Maksim Rodinson orientalizmni – Sharq dunyosini oʻrganuvchi maxsus bilimlar muassasasi ekanligini taʼkidlab, zudlik bilan uning jurnali, uyushmasi va ilmiy asosini yaratuvchi mutaxassisga ehtiyoj mavjudligini aytadi. Rodri Bart quyidagi fikrlarni bildiradi: “Orientalism is the science of the East, or the science of the Eastern World” [Taj M.K., 2014; 24].

Mazkur fikrlardan shu narsa anglashiladiki, orientalizm – sharqshunoslik yoxud Sharq dunyosiga oid ilm-bilimlar jamlanmasidir.

Sharqshunos Edvard Said yuqoridagi uch mushtarak taʼrifni maʼqullab, unga qoʻshimchalar kiritadi. Birinchidan, orientalizm – akademik mustaqil fan sohasidir; ikkinchidan, orientalizm – Sharq va asosan Gʻarb oʻrtasida shakllantirilgan ontologik hamda epistemologik tafovutga asoslangan fikr-mulohazalar uslubidir; uchinchidan, bu konsepsiya Sharqdan ustun turishni koʻzlovchi gʻarbcha taxminiy falsafadir, – deb yozadi u [Said E., 1985; 3]

Orientalizm, uning paydo boʻlish tarixi, mohiyati singari savollarga javob izlagan Edvard Said oʻz izlanishlari samarasini jamlab, “Orientalizm” (“Orientalism”, 1978) ded nomlangan kitobini yozgan. Bu asar nafaqat kitobxonlar, balki jamiyatshunos tarixchi va adabiyotshunoslar uchun muhim qoʻllanmaga aylangan. Unda yevropaliklar va mustamlakachilik tarixi, madaniy ishlab chiqarish va kapitalizm, Maʼrifatparvarlik liberalizmi va hukmronlik siyosati oʻrtasidagi bogʻliqliklar chuqur tahlil qilingan.

“Orientalizm” kitobida tahlil qilingan poststrukturalizm oqimi adabiyot nazariyasi, madaniy tanqidchilik rivojiga hamda Sharq dunyosini tadqiq qiluvchi Oʻrta Sharq fanlari turkumiga ulkan hissa qoʻshdi. Jamoatchilik nuqtai nazarini oʻrgangan Edvard Said orientalizmning mazmun-mohiyatini toʻgʻri asoslash maqsadida tarixchi olimlar bilan bahs-munozaraga kirishdi. XVIII asrda koʻp mutolaa qilingan, Yevropaning, asosan, Fransiya va Germaniyaning 1770–1870-yillar oraligʻidagi madaniy va intellektual hayotini yorituvchi Reymond Shvabning “Sharqona Uygʻonish” (“Oriental Renaissance”) asaridan ilhomlanib, Said Sharq mavzusiga oid kitobini yozishga qaror qildi.

Tarixchi Marshallning taʼkidlashicha, 1984-yili Said asarining kirish qismi havola qilingan Shvabning kitobi ingliz tilida paydo boʻlgach, amerikalik, britaniyalik va hind olimlarining Sharqni tadqiq qilayotgan olimlarga nisbatan munosabatlari mutlaqo oʻzgardi. Shvab talqiniga asoslangan Saidning “Orientalizm” asarida Napoleonning harbiy harakatlari bilan birga, “Yevropa madaniyati imkoniyatlarini qamrab oluvchi, hatto sharqona siyosiy, ijtimoiy, harbiy, gʻoyaviy, ilmiy va xayoliy sistemali bilimlar paydo qilishga qodir” mazmunidagi matnlar jamlangan edi.

Orientalizm deganda, faqatgina, Qurʼon, paygʻambar hadislari, islomiy tamoyillar va shariat qonuniyatlari tushunilmaydi. U oʻz ichiga tarixiy manbalar, adabiyotlar va romanlarni ham qamrab oladi. Bu oʻrinda, orientalizm konsepsiyasini asarlarida ifodalagan romantik davr ijodkorlarini eslash muhim. Ular sirasiga

britaniyalik va amerikalik yozuvchilar kiradi. Masalan, “Kamasutra” (“Kama Sutra”, 1883) va “Anvoyi bogʻ” (“The Perfumed Garden” 1886) kabi asarlarni inglizchaga tarjima qilib, chop etgan Ser Richard Frensis Byortondir (1821–1890). Uning orientalizm rivojiga qoʻshgan muhim ikki hissasi – “Makkayu Madinaga ziyorat qissalari” (“Personal Narrative of a Pilgrimage to al-Madinah and Meccah”) va “Ming bir kecha” (“One Thousand and One Nights”) turkum tarjimalari hisoblanadi [Williams P., 2016, 644]. Bundan tashqari, romantik davrga tegishli atoqli shoir Semyuel Teylor Kolrij (1772–1834) ham Sharq mavzusini yoritish masalasini ilgari surgan. Afyun isteʼmoli taʼsirida uyquga ketib, tushida bayon boʻlgan uning “Qubla Xon” poemasi koʻplab kitobxonlarning qalbidan joy olgan.

XVIII–XIX asr romantizm davrida orientalizm hodisasi Sharq adabiyoti bilan uzviy bogʻlanib, u oʻz ichiga sharqona qissalar, ertak, hikoya, afsonayu dostonlarni qamrab oldi. Buning asosiy sababi esa mashhur sharqshunos olim, tarjimon va davlat arbobi Jan Antuan Gallan (Jean Antonio Galland, 1646–1715) tomonidan fransuzchaga oʻgirilgan “Ming bir kecha” boʻldi. Inglizlar uni “The Arabian Nights’ Entertainment” deb ham nomlashadi. Gallanning tarjima ertaklari oʻn ikki jildidan iborat boʻlib, Yevropa adabiyotiga misli koʻrilmagan tarzda taʼsir oʻtkazdi. 1704–1717-yillar oraligʻida arab qissalari Gʻarb mamlakatlari kitobxonlarida qiziqish uygʻotib, koʻp tillarga, jumladan, 1706-yili ingliz, 1712-yili nemis, 1722-yili italyan, 1732-yili niderland, 1763-yili rus, 1768-yili polyak va boshqa tillarga tarjima qilindi. Yozuvchi Xorxe Luis Borxesning taʼkidlashicha, Yevropada romantizm davri “Ming bir kecha” qissasi tarjimasi oʻqilganidan soʻng boshlangan. Ilk ingliz romantizm adabiyotida sharqona mavzular XVIII asr boshlarida “Ming bir kecha” arab qissalarining tarjimasidan soʻng avj ola boshladi. Bu qissalardagi sirli voqealar, manzaralar va hikoya kahramonlari xarakteri koʻplab ingliz ijodkorlariga ilhom bagʻishlab, “sharqona qissalar” deb nomlangan yangicha janrda asarlar yaratishga undadi. Abdulla al-Dabbajning fikricha, yangi janr va arab ertaklarining tarjima qilinishi romantizmning kirib kelishiga debocha boʻldi [Taylor S., 2017; 5].

Britaniyalik yozuvchilar ham sirli arab ertaklarini oʻz tillariga oʻgirishni niyat qilishdi. Oʻsha paytlarda Sharq mavzusiga qiziqish ortib, ingliz kitobsevarlari uchun arab dunyosi tobora tanish va yaqin boʻla boshladi. Sharq madaniyatini asarlarida kuylagan ijodkorlar sirasiga Richard Byorton, Tomas Mur, Kolrij, Uilyam Bekford, Uilyam Vordsvort, Robert Sauti, Bayron va Valter Skottni kiritish mumkin.

Uilyam Bekford (William Beckford, 1760–1844) gʻayritabiiy gotik romani “Vatek” (“Vathek”, 1786) bilan dovuq qozongan. Yozuvchining “Gʻayrioddiy musavvirlarning bibliografik xotiralari” (“Biographical Memoirs of Extraordinary Painter”, 1780) deb nomlangan ilk ishi kinoyali jumlar bilan toʻyintirilgan edi. 1782-yili Bekford fransuz tilida oʻzining sharqona qissasi – “Xalifa Vatlik tarixi” (“The History of the Caliph Vatlick”)ni yozgan boʻlsa, 1786-yili bu asar Semyuel Xenli tomonidan inglizchaga oʻgirilib, boy tasavvurning mahsuli sifatida adabiyot olamida oʻz oʻrniga ega boʻldi.

Adabiyotda “orientalizm konsepsiyasi” gʻoyasini ilgari surgan ingliz romantizm sheʼriyati namoyandalaridan yana biri Robert Sauti sheʼriy poemasi “Janna dʼArk”

(“Joan of Arc”, 1796) bilan shuhrat topdi. Shotlandiyalik tarixiy roman janri asoschisi, dramaturg va shoir Ser Valter Skott (1771–1832) romantik qarashlarini “Ko‘l qizi” (“The Lady of the Lake”, 1810) va “Ueverli” (“Waverley”, 1814) romanlarida mahorat bilan ifodalagan. Yozuvchining “Tumor” (“The Talisman”, 1825) romani ingliz adabiyotida musulmonlar ijobiy tasvirlangan ilk asar hisoblanadi. Shunday qilib, XVIII–XIX asrlarda ijod qilgan, yuqorida nomlari keltirilgan yozuvchilar va ularning asarlari Britaniyada romantik orientalizm gullab-yashnashiga o‘zlarining benihoya hissalarini qo‘shdilar.

Orientalizm Sharq madaniyatini anglatuvchi siyosiy, iqtisodiy va madaniy kabi tushunchalarni o‘z atrofida birlashtirishi mamlakatimiz olimlari M.Xolbekov, F.Sulaymonova, M.Baqoyeva, M.Jo‘rayev, Sh.Shomusarov, P.Qurbonov va U. Qarshiboyevaning ilmiy izlanishlarida keng yoritilgan. Ularning asarlarida, asosan, Sharq o‘zining boy adabiy manbalari bilan qadim zamonlardan buyon G‘arbn ta‘minlab kelgani e‘tirof etiladi. Ko‘plab tadqiqotlardan ma‘lum bo‘ladiki, orientalizm romantik eraning ildizidan tomir otmagan. Faqat aynan o‘sha davrga kelib, Yevropada Sharqqa qiziqishlar ortdi va keng targ‘ib etildi [Taylor S., 2017; 3]. Angliyada XVIII asrda “Ko‘l maktabi” shoirlari Sauti, Kolrij va Vordsvort tomonidan boshlangan harakatning davomi sifatida, XIX asrda ham romantik ruhda sharoqona asarlarda g‘ayritabiiy syujetlar, noodatii hodisalar va bir-biriga o‘xshamagan qahramonlarni keng ko‘lamda tasvirlash an‘anaga aylandi. Sharq ularning tasavvurida ajoyibotlar o‘lkasi sifatida namoyon bo‘lardi. Romantistlar hashamatli saroylar, g‘aroyib manzaralaru qahramonlar va qadim tarixni asosiy mavzu qilib oldilar. Ular ichida eng ko‘zga ko‘ringan yozuvchi Lord Bayron edi. U o‘zining mashhur “Kofir: Turk qissasi fragmenti” (“The Giaour: A Fragment of a Turkish Tale”, 1813) poemasida islomii tamoyillarning qadr-qimmati masalasini ko‘tarib chiqadi. Ushbu asar muallifga e‘tirof va tanqidlar bilan birga moliyaviy muvafaqqiyatlar ham keltiradi. 1810–1811-yillarda Bayron do‘sti Jon Kem Hobxaus bilan sayohati davomida ushbu poemani yozishni niyat qiladi. U Afina sayohatida musulmon qonunlariga zid ravishda zino qilgani uchun qopga bog‘lanib, dengizga uloqtirilayotgan ayol voqeasiga guvoh bo‘ladi. Shuning uchun Bayron “Kofir” deya e‘tiqodsiz va iymonsiz insonni tasvirlaydi. Poemaga “Turk qissasi fragmenti” (“A Fragment of a Turkish Tale”) nomli kichik sarlavha qo‘yilib, bu Bayronning yagona fragment hisoblangan nasrii poemasidir. Asardagi voqealar seriyasi uch nafar shaxs tilidan hikoya qilinadi. Poemadagi muhabbat, o‘lim va keyingi hayot tasvirlari orqali xristian va musulmon urf-odatlarini taqqoslash mumkin. Bayronning ayni shon-shuhrat pillapoyalariga chiqqan davrida yozilgan “Kofir” poemasi qayta-qayta nashr etilib, muallifga ko‘p muvafaqqiyat keltirdi. Shunday yuqori kayfiyat shoirni yana turkiy hikoyalar yozishga undab, “Turk qissalari” (“Turkish tales”) turkumiga kiruvchi – “Abidoslik kelin” (“The Bride of Abydos”, 1813), “Qaroqchi” (“The Corsair”, 1814) va “Lara” (“Lara”, 1814) dostonlarini birin-ketin e‘lon qildi. Uning bu dostonlari Nizomiyniing “Layli va Majnun” va Firdavsiyniing “Yusuf va Zulayxo” dostonlari ta‘sirida yozilgan.

Bayronning 1813–1814-yillar oralig‘ida yozilgan ushbu dostonlari kitobxonlar tomonidan ijobii kutib olinib, olti oy ichida “Kofir” dostoni yetti marta qayta nashr

etildi. Bir oy ichida “Abidoslik kelin” poemasi olti ming nusxada sotildi. “Qaroqchi” nomli kitobi esa chop etilgan kunning o‘zidayoq, ko‘z ko‘rib, kuloq eshitmagan darajada, o‘n ming nusxada sotildi. “Lara” dostoni besh kun ichida olti ming nusxada sotildi. Ushbu faktlar nafaqat Bayronning muvafaqqiyatini isbotlaydi, balki o‘sha davrning Sharq olamiga bo‘lgan ehtiromi va qiziqishlarini ham namoyon etadi. Bayron ushbu asarlarini o‘z zamondoshlari kabi uzoq vaqt mulohaza yuritib yozgan emas. Adabiyotshunoslar ta’kidlaganidek, uning dostonlari Sauti asarlari kabi o‘ta mukammal ham emas. O‘zini professional yozuvchi sanamasligini Bayronning o‘zi ham tan olgan. Biroq muallifning zamondoshlaridan hech kim, hatto, Sharqqa sayohati davomida ham romantik muhit va hissiyotlarni Bayron kabi ziyraklik bilan ilg‘ay olmagan. Shoir esa Sharq adabiyotidan o‘qigan va tasavvur qilgan voqea-hodisalariga asoslanib o‘zining qator asarlarini yozdi. Muallif asarlarning yuqori sifatli bo‘lmasada, ularga katta baho berib yuborishayotganini anglab turardi. U o‘zi yaxshi o‘rganib chiqqan sharqona olamga xayolidagi qahramonni joylashtiradi va shu yo‘sinda, birin-ketin hikoyalar yoziladi. Ma’lumki, Bayron “Ming bir kecha” va “Vatek” kabi asarlardan ilhom olgan. Ammo ularda tasvirlangan o‘ta g‘ayritabiiy syujetlarga uning she’riyatida joy yo‘q edi. Uning nazdida Sharq nafaqat ishonib bo‘lmas sehrlar ro‘y beradigan sehrigar va parilar yurti, balki zolim podshohlar, qaroqchi va bosqinchilar o‘lkasi ham edi. U zamondoshlarining ishlarini o‘qib chiqqach, Sharq mavzusiga ko‘proq real yondashishga harakat qildi, ma’lumotlar to‘pladi. Usmoniylar imperiyasi mustamlakasi bo‘lgan Albaniya, Yunoniston va ayrim Osiyo mamlakatlaridagi shaxsiy kuzatuvlari va tajribalaridan kelib chiqqan holda o‘z poemalarini yozdi. Bayron asarlarining ahamiyatli jihatlaridan biri – uning qahramonlari boshqalarnikiga sira o‘xshamaydi. Ular voqea-hodisalar bilan birgalikda, go‘yoki, yoningizda harakat qiladi. Ular ham tarixiy, ham individual voqelikni namoyon etishadi. Misol uchun Kofir, “Abidoslik kelin”dagi Salim, “Lara” hamda “Qaroqchi” dostonlaridagi Lara va Konrad obrazlari negizida isyonkor, ba’zan sotqin qahramonlar tasvirlanadi. Lekin bu ularga faqat tanqidiy nazar bilan qarash kerakligini anglatmaydi. Ularni chuqurroq tadqiq etish orqaligina qahramonlarning shaxsiyatini aniqlash mumkin bo‘ladi. Ehtimol uning qahramonlari o‘ziga xos sharqona fazilatlari bilan ham boshqalardan ajralib turar. Bu haqida Bayron asarlarining muharriri Ye.H. Kolrij shunday yozadi: “Byron’s metrical “Tales” come before us in the guise of light reading, and may be “easily criticized” as melodramatic – the heroines conventional puppets, the heroes reduplicated reflections of the author’s personality, the Oriental “properties” loosely arranged, and somewhat stage-worn. A thorough and sympathetic study of these once extravagantly lauded and now belittled poems will not, perhaps, reverse the deliberate judgement of later generations, but it will display them for what, they are, bold and rapid and yet exact presentations of the “gorgeous East,” lived and fresh from the hand of the great artist who conceived them out of the abundance of memory and observation...” [Byron, 2015; 8]. Uning fikriga ko‘ra, Bayronning vaznli “Qissalar”i, yengil o‘qishli tuyulib, undagi odatiy qo‘g‘irchoq qahramonlar, muallif shaxsiyatini aks ettiruvchi obrazlar, istalgancha moslashtirilgan sharqona xususiyatlar va qaysidir ma’noda siyqasi chiqqan sahnalar achinarli tarzda tanqid “bo‘roni”ga yuz tutishi

mumkin. Ularni ziyraklik va xayrixohlik bilan o'rganish davomida, qachonlardir aqlga sig'maydigan darajada ko'klarga ko'tarilgan, endilikda yerga urilayotgan poemalar, ehtimol, kelajak avlodning fikr-mulohazalarini o'zgartira olmas, ammo ularga yetuk san'atkorning keng qamrovli xotirasi hamda kuzatuvlari natijasida paydo bo'lgan yorqin va sof asarlardagi "buyuk Sharq"ning asl, tezkor va aniq qiyofasini taqdim etadi.

Bayronga shuhrat keltirgan omillardan biri shuki, u zukkolik bilan o'z aql-zakovati tomirlarini Sharq bilan bog'lay oldi. Taomillarga ko'ra, asarlariga biroz realistik ruh berish maqsadida to'plagan ma'lumot va manbalaridan foydalanib, kirish qismlari va havolalar yozdi. Ammo u Robert Sauti kabi izohlarga ko'p ham berilmay, tasavvurida Sharqni qanday ko'rsa, shunday tasvirlashga qodir edi. Xalq orasida tomoshalarga ehtiyoj yuqori darajaga yetgan pallada Bayron o'zining "Turk qissalari" bilan omma e'tiborini qozondi.

Ijodkorning muvaffaqiyatga erishishida uni o'rab turgan adabiy muhit ham alohida o'rin tutadi. Bayronning ham turli ijodiy masalalarni o'rtoqlashadigan, uzundan-uzoq bahs-munozaralar olib boradigan hamfikir zamondoshlari bor edi. Ilmiy tadqiqotlarida Bayron ijodida kuzatilgan sharqona motivlarni tahlil qilgan olim A.Qurbonovning ta'kidlashicha, Bayron zardushtiy olimlar, kohinlarning seheru jodu ilmlarini o'rganib, kuch-qudratga erishganligini boshqa manbalardan, xususan, Sharqni undan yaxshiroq bilgan Tomas Mur ma'lumotlaridan olgan bo'lishi mumkin [Qurbonov P., 2019; 18]. Biroq Bayronning eng yaqin do'sti va maslakdoshi Tomas Mur shoirning ayrim ishlaridan aziyat chekdi. Chunki doimiy ravishda ular bitajak asar g'oyalarini birga muhokama qilishar, bamaslahatlikda yangi ishni boshlar edilar. 1811-yil sentabr oyida Mur Sharq mavzusini madh etuvchi navbatdagi asarga qo'l urdi. Toki asarni tugallab, nashr etmaguniga qadar bu haqida sir saqlashni lozim topdi. Ammo Bayron do'sti Murning sharqona doston ustida ishlayotganidan xabardor bo'lsa-da, unga ilhom bag'ishlovchi so'zlardan o'zini tiydi. Sharq mavzusi o'sha davr she'riyatining asosiy mavzusi bo'lib, ikki shoir ko'p bora bu haqda o'zaro fikrlashar edilar. Lekin o'zi qo'l urgan mavzuda Bayron ham yozayotganini eshitgan Mur hayratdan lol qoldi. Bayronning cheksiz olqishlardan sarmastligini ko'rgan Murning hafsalasi pir bo'ldi. Ulkan muvaffaqiyatga sazovor bo'lgan Bayronning "Abidoslik kelin" dostoni ham, aslida, Mur chop etishni niyat qilib yurgan asar g'oyasi bilan deyarli bir xil edi. Bunday adolatsizlik uni qattiq ranjitdi. U o'z dardlarini to'kib solish uchun Meri Dalbay (Mary Dalby)ga noma bitdi: "Lord Byron's last poem did give me (I am sorry to tell you) a deep wound in a very vital part – my story; and it is singular enough, for he could not know anything about it" [Dowden E., 1813; 269]. Bayronning so'nggi poemasi o'zining asari bilan o'xshashligi, aynan u yozmoqchi bo'lgan dostonning asosiy mazmuni ekanligidan qalbi ozor chekkani haqida yozadi Mur.

Jamiyatning Sharqqa bo'lgan qiziqishini hisobga olganda, ehtimol, Tomas Murning yangicha ruhda poemalari jiddiy bahs-munozaralarga sabab bo'lardi. Balki zamondosh shoirlar ham unga ergashib, sharqona asarlar bitishardi. Shunday o'ylarni boshidan o'tkazgan shoir quyidagilarni yozib qoldiradi: "... I feel rather downhearted

about it. Never was anything more unlucky for me than Byron's invasion of this region, which when I entered it, was as yet untrodden, and whose chief charm consisted in the gloss and novelty of its features; but it will now be over-run with clumsy adventurers, and when I make my appearance, instead of being a leader as I looked to be, I must dwindle into an humble follower – a Byronian. This is disheartening, and I sometimes doubt whether I shall publish it at all; though at the same time, If I may trust in my own judgement, I think I never wrote so well before” [Dowden E., 1813; 275]. Shoirning yozishicha, u bo'layotgan hodisalardan qattiq tushkunlikka tushib qoladi. Hali hech bir zog' qadam bosmagan hududga kirib borganida, unga Bayronning tajovuz qilishi shoirni esankiratib qo'yadi. U yerda tengsiz jozibalar tajassumi va uning alohida xususiyatlari faqat o'ziga ayon ekanligini ta'kidlaydi. Biroq endi u joylar beo'xshov sayyohlarga to'lib toshayotgani, agar u mazkur mavzuga yana nazar tashlaydigan bo'lsa, endi yetakchi emas, balki Bayronga o'xshab oddiy izdosh bo'lishiga to'g'ri kelishini va bu holat kishi hafsalasini pir qilishini aytadi. Shuningdek, Tomas Mur asarni chop qilish borasida uzoq ikkilanib, o'z his-tuyg'ularidan kelib chiqqan holda, “avval hozirgidek zo'r yozmas edim” degan mulohazalarni ham bildiradi.

Bayronning sharqona dostonlari jamiyat e'tiborini qozonganda, 1817-yil Tomas Murning “Lolarux” (“Lalla Rookh”) poemasi nashrdan chiqib, yevropalik kitobsevarlar qalbidan chuqur joy oldi. Poemadagi voqea-hodisalar sirli olam bo'lmish sharqiy mamlakatlarda sodir bo'ladi. Asar qahramoni Avrangzeb va'dasiga vafo qilib, qizi Lolaruxni Dehlidan Kashmirda – bo'lg'usi kuyovi – Buxoro shohining o'g'liga xotinlikka yuboradi. Yo'l-yo'lakay qizini himoya qilib ketish uchun Avrangzeb yo'llagan hamrohlardan biri – yosh shoir Feramors o'zining turli-tuman ertaklari bilan Lolaruxni zeriktirmaydi. Qiz shoirni sevib qoladi, shu sababli peshonasiga bitilganini ko'rishga majbur edi. Lekin baqtriyalik shahzoda huzuriga yetib kelganida, baxtdan hushini yo'qotadi. Chunki shoir Feramors uning bo'lg'usi yori, ya'nikim, shahzoda bo'lib chiqqan edi.

Poema qirolik hofizi Feramorsning ertaklariga bog'liq ravishda to'rt qismga bo'linadi: “Xurosonlik chimmatli payg'ambar” (“The Veiled Prophet of Khorassan”), “Jannat va pari” (“Paradise and the Peri”), “Olovparastlar” (“The Fire Worshipers”), “Haram yog'dusi” (“The Light of the Haram”). Ularning ichida eng sarasi bo'lgan “Jannat va pari” dostoni fors afsonalari asosida yozilib, yer yuziga ezgulik nurini sochuvchi farishtalar avlodidan bo'lgan parilar haqidadir.

“Lolarux” Sautining sharqona dostonlaridagi ilmiy an'analarni davom ettirib, Bayron uslubini umuman rad etadi. Tomas Mur asarda mutlaqo notanish sahnalar va rang-barang tasviriy epizodlarga murojaat qiladi. Shoir turli kitoblarda o'qigan Sharq mamlakatlari haqidagi ma'lumotlarga tayanib, asari g'oyasini ko'plab kitobxonlarga ma'lum bo'lmagan adabiyotlardan jamlaydi.

Sharq olami haqidagi bilimlarini asarlariga jo qilgan yana bir shoir Semyuel Teylor Kolrij sharqona doston – “Qubla Xon” poemasi muallifidir. Kolrij Sharq dunyosiga astoydil qiziqib, ko'plab manbalarni mutolaa qiladi. Shu sababli “Qubla Xon” dostonining syujeti unga g'oyibdan ma'lum bo'lib, darhol uni qog'ozga tushiradi. U o'z asarida mo'g'ul xoni Hubiloyxon yashagan joy manzarasi, uning mahobatli

saroyi, atrofida sodir bo'ladigan g'alati hodisalarni she'riy yo'l bilan tasvirlaydi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, boshqa millat va elatning hayoti, uning turmush tarzi va urf-odatlarini o'rganish orqali madaniy almashinuv ro'y berib, bu o'zgarishlar ko'p sohalar qatori adabiyot ahli ongida ham yangi g'oya va fikrlarni uyg'otishi tabiiy. Yevropa Sharqqa xos badiiy va madaniy uslublarni lotin va greklarning G'arbga ta'siri bilan taqqoslaganda ancha ijobiy qabul qildi. Sharqona adabiyot unsurlarining allaqachon g'arbliklarning ongu shuurida va yozishmalarida bo'y cho'za boshlagan kurtaklari yevropaliklar qalbini maftun etgandi [Arnold T.W., 1931; 181]. Shu yo'sinda, sharqona elementlar avval boshlangan yevropacha harakatlarning yangicha usulda davom etishiga ko'maklashdi. Inglizlarning Sharqqa bo'lgan ishtiyoqi "romantizm" deb nomlangan madaniy va adabiy ko'rinishdagi harakatlarni boshlab berdi. Sharqqa ishtiyoqmandlik kayfiyati asosan XVIII va XIX asrlarda yaqqol yuzaga chiqdi. "Ming bir kecha" tarjimasidan so'ng, 1824-yil Jeyms Morierning "Isfahonlik hoji boboning sarguzashtlari" nomli mo'jaz qissasi chop etilgach, kitobxonlarning Sharqni o'rganishga bo'lgan qiziqishi yanada ortdi.

She'riyatga ishtiyoqmandlar XVIII asr ingliz adabiyotiga murojaat qilishganlarida, avvalo, undagi sharqona belgilarni izlashga kirishishlari tabiiy. O'sha zamonning deyarli barcha shoirlari o'z ijodlarida, albatta, oriental mavzularga bir bora nazar solib o'tadi. Ularning ayrimlari eklektizmga berilib, o'z urinishlari mobaynida turli qarash va nazariyalarni bir-biri bilan qorishtirib ham yuboradi. Manbalarga ko'ra, asosan, Bayron, Sauti va Murning sharqona asarlari kitobxonlar tomonidan juda yaxshi qabul qilingan bo'lsa-da, ammo ularning ijodi faqat bu mavzudagi poemalar bilan cheklanib qolmagan. Ma'lum bo'ladiki, romantik davr boshlanishidan oldin Sharqqa doir materiallar tarqoq iboralar, jozibadorligini yo'qotgan sifatlar, sharqonalik belgilarini kasb etmaydigan turli poemalar bilan yuzaga chiqadi. Bu davrda yaratilgan Sharq olami tasvirlari bilan boyitilgan poemalarda g'ayrioddiy hodisalar mavjud emas. Ingliz she'riyati qurilmalari Sharqqa xos bo'lmagan odatiy satrlar asosida yaratiladi, bular: qofiyali baytlar, sakkiz bo'g'inli she'r, oq she'r va boshqa lirik janrlardan iborat.

Qofiya masalasiga kelsak, Bayronning "Sanheribning qulashi" ("The Destruction of Sennacherib", 1815) poemasi ritmik qonun-qoidalardan mustasno tarzda bitilgan. Ushbu asarda Ossuriya qiroli Sanheribning Quddus shahriga yurishlari bayon qilinadi. Sharqona mavzu kuylangan ushbu poemada shoir turli-tuman lirik janrlarga yondashadi. Bular jumlasiga epik, lirik, qasida, ekloga (cho'ponlar tilida), hikoyaviylik va boshqa janrlar kiradi.

Ingliz romantik shoirlari har qancha sharqona mavzularda ijod qilishmasin, baribir hali-hanuz o'zlari ko'nikkan ingliz poeziyasi tuzilmalari doirasida yozardilar. Ular sharqona muhit va kayfiyatga moslashishga hali tayyor bo'lmalar-da, o'zlarini qarzdor sanab, Sharqning mumtoz she'riy an'analarini zo'r ishtiyoq bilan o'rganishdi. Uzoq davom etadigan Sharq mumtoz adabiyotining ta'siri sabablari haqidagi dastlabki nazariy ma'lumotlar, ehtimol, "Sharq va G'arb she'riyatini qiyoslash" ("Comparison of the Eastern and Western Poetry") nomli maqolani matbuotga tayyorlagan Jon Hasbandning o'limi arafasida yo'qolgandir [Keymar T., 1998; 1083]. U "Poemalarda

rang-baranglik” (“Miscellany of Poems”, 1731) risolasining muqaddimasida bu haqda shunday yozadi: “Their phrases are certainly more ardent and intense than Those in any European Language, and the Figures more bold and vehement. Tho' Their Poetry was less artificial, 'twas more nervous, lively, and expressive than ours. They have nothing of the Finesse, Nothing that is over-wrought. This renders them so vivid, beautiful, and affecting” [Crane R.S., 1922; 32]. Ushbu fikrlardan kelib chiqadiki, Sharq tillari, shak-shubhasiz, har qanday Ovro‘pa tilidan ko‘ra jo‘shqin va qudratli, tasvirlari o‘ta nozik va otashin edi. Sharq poeziyasi g‘arbliklarnikiga qaraganda tabiiyroq, keskinroq, jonli va ta’sirliroq edi. Ularda makkorlik ham, balandparvozlik ham uchramaydi. Bu esa ularni yanada yorqin, go‘zal va jozibador qilib ko‘rsatadi.

Sharqning ingliz adabiyoti rivojiga qo‘shgan muhim hissalaridan biri – uning lug‘at boyligini oshirish va yangi mavzular bilan boyitish bo‘ldi. Sharq adabiyotidagi g‘ayrioddiy mavzulardagi ertaklar, turli tasvirlar, ezgulik va yovuzlik sahnalari ingliz shoirlariga o‘z navbatida yuksak ilhom bag‘ishladi. Biroq orientalizm ularni o‘zlarining mumtoz an‘analaridan voz kechishga undagani yo‘q. Tarixchi Eduard Gibbon (Edward Gibbon, 1737–1794) aytganidek: “Our education in the Greek and Latin schools may have fixed in our minds a standard of exclusive taste; and I am not forward to condemn the literature and judgement of nations of whose language I am ignorant. Yet I know that the classics have much to teach, and I believe that the Orientals have much to learn; the temperate dignity of style, the graceful proportions of art, the forms of visible and intellectual beauty, the just delineation of character and passion, the rhetoric of narrative and argument, the regular fabric of epic and dramatic poetry. The influence of truth and reason is of less ambiguous complexion” [Gibbon E., 2001; 33]. Gibbon lotin va yunon maktablarida olgan ta’limlari miyasiga maxsus tab’lar mezonini o‘rnatganini qayd etadi. U o‘zi yaxshi bilmagan tilning adabiyoti yoki xalqini qoralash niyati yo‘qligi, holbuki, klassiklarning beradigan saboqlari ko‘pligini bildirib, sharqshunoslar ham ko‘p izlanishlari keraklini ta’kidlaydi. Uslubning mo‘tadil salobati, badiiy san’atlarning nozik mutanosibliigi, sezilarli va aqliy nafasatning shakllari, xarakter va his-tuyg‘ularning adolatli taqsimoti, hikoya va dalillar ritorikasi, epik va dramatik she’riyatning doimiy tuzilmasi Sharq adabiyotining badiiylik mezonlari sanaladi. Bunda haqiqat va ong ta’siri ikkinchi darajaga tushadi.

Orientalist ijodkorlar Sharq dunyosi haqidagi bilimlarini nafaqat o‘zlari mutolaa qilgan kitoblaridagi ma’lumotlar orqaligina boyitib qolmay, balki sharqiy o‘lkalarga safarlar uyushtirish davomida sayohatnomalar, xabarlar va sarguzasht hikoyalar yozib, tasavvurlarini yanada kengaytirishdi. Ayniqsa, “Ming bir kecha” syujetlari orqali Sharqni tanigan yozuvchilar hayotiy voqealar asosidagi nasriy asarlar bitish mobaynida talaygina qiyinchiliklarga duch kelishdi. Natijada ularning asarlari qo‘shimcha izohlarga to‘lib toshdi. Bu holni Robert Sautining “Talaba – vayron qiluvchi” va Vordsvortning “Muqaddima” nomli poemalarida ham kuzatish mumkin.

Adabiyotda so‘zning ahamiyati beqiyos. Ijodkor o‘z fikrini xoh she’riy, xoh nasriy, xoh publitsistik yo‘sinda ifodalagan bo‘lsin, u foydalangan so‘z va iboralar jamlanmasi to‘g‘ri tanlanishi muhim va kitobxonning qalbidan joy ola bilishi zarur. Ingliz romantizm davri shoir va yozuvchilari Sharq dunyosini tadqiq etish orqali

adabiyotga yangi lugʻat boyligini olib kirdilar. Dastavval, bu soʻzlarga asarlarida izoh va tushuntirishlar berishgan boʻlsa, asta-sekinlik bilan ular ingliz lugʻat qatlamiga singib, oʻzlashib ketdi. Yuqorida taʼkidlaganimizdek, Sharq olamiga qiziqish ingliz poeziyasining lirik qurilmasi, yoinki, uslubiga jiddiy taʼsir koʻrsatmagan boʻlsa-da, biroq shoirlar Sharq olamini tadqiq etish orqali oʻz asarlarini turli mavzuli sahnalar bilan boyitdi. Ularning asarlarida ingliz lugʻat boyligida uchramaydigan arab, turk, hind va boshqa tillardan kirib kelgan yangi soʻzlar uchray boshladi. Masalan, genie [ˈdʒiːni] – jin (arab tilidan), nadir [ˈneɪdɪə] – tushkunlik (arab), giaour [ˈdʒaʊə] – kofir (arab-turk), elixir [ɪˈlɪksə] – obi-hayot (arab), orange [ˈɒrɪn(d)ʒ] – olovrang (arab-fors). Inglizlar tomonidan hozirgi kunga qadar keng foydalanib kelinayotgan sharqiy tillardan oʻzlashgan soʻzlar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin [Osborne E., 1916; 136]:

- admiral – admiral (arab);
- alcohol – alkogol (arab);
- alcove – taxmon (arab);
- amber – qahrabo (arab);
- arsenal – aslahaxona (arab);
- assassin – yollangan qotil (arab);
- azure – lojuvard(fors);
- bamboo – bambuk (malay);
- bazaar – bozor (fors);
- caravan – karvon (fors);
- check – shaxmat oʻyinida shoh berilgan holat (fors);
- cipher – shifr, nol (arab);
- crimson – qirmizi (sanskrit);
- dervish – darvesh (fors);
- elixir – obi-hayot (arab);
- fustian – poʻstin (arab-misr);
- garble – elamoq (arab);
- genie – jin (arab);
- giaour – kofir (arab-turk);
- ginger – zanjabil (sharqiy tillar);
- horde – oʻrda (turk);
- jasmine – yasmin (fors);
- jungle – changalzor (sanskrit);
- lemon – limon (fors);
- lilac – koʻkish (fors);
- musk – mushk-anbar (fors);
- nadir – tushkunlik (arab);
- orange – olovrang (fors-arab);
- peacock – tovuş (sharqiy tillar);
- punch – besh (sanskrit);
- saccharine – shakarli (sanskrit).

Ushbu ro'yxatga sharqiy tillardan ingliz tiliga o'zlashgan va hozirgacha iste'molda keng qo'llanilayotgan so'zlar kiritilgan. Bu ro'yxatni yana davom ettirsak bo'ladi. Xullas, bu hodisa XVIII asr ingliz romantik shoirlarining adabiyotga qo'shgan ulkan hissalaridan biri deb e'tirof etishga arziydi. XVIII asr oxirlari va XIX asr boshlarida Angliya adabiyotida orientalizm madaniyati yuksalishi asnosida yozuvchilar ham Sharq mamlakatlarining real hayotini ifodalovchi hikoyalarni yoza boshladi. Sharqona urf-odatlar va an'analarni tasvirlovchi sahna asarlarida ham badiiy to'qimalarga chek qo'yildi.

XVI asrda yevropalik sayyohlar va savdogarlar o'z mamlakatlari mahsulotlarini hind ziravorlari, Xitoy ipaklari va ayrim yapon narsalari bilan ayirboshlash maqsadida Osiyo xalqlari tomon yo'l olishdi. Avvaliga ispaniyalik va portugaliyaliklar Sharq bozorida yetakchilikni qo'lga olgan bo'lsa, XVII asrning o'rtalarida Gollandiyaning Iberiya yarim oroli savdogarlari bu borada ilgarilab ketishdi. Biroq oradan ko'p o'tmay, angliyalik va fransiyalik tijoratchilarning kuchli ta'siri ostida gollandlar savdodan siqib chiqarildi.

XVIII asrda inglizlarning diqqat-e'tiborini tortgan "Orient", ya'ni "Sharq" va "sharqona" tushunchalar va ularning madaniyatiga kirib kelishi borasida fikr yuritganimizda Choserning quyidagi gaplari yodga tushadi: "Merchants are the fathers of tidings and tales [Chaucer G., 2003; 127] and the wallets of shipmen and pilgrims are full of lies" [Chaucer G., 2003; 247]. U ushbu fikrida savdogarlar hikoya va ertaklarning otalari ekanligi, kemachi va sayyohlarning hamyonlari esa yolg'onga liq to'la bo'lishini ta'kidlaydi. XVI asrda Angliya Mongoliya imperiyasi bilan savdo aloqalarini yo'lga qo'yish maqsadida Sharq tomonga qadam tashladi. Shuning uchun ham qadimgi savdogar va sayyohlarning Sharq haqidagi yozishmalari ingliz kitobxonlariga yaxshi tanish. Albatta, ingliz xalqi XIV asr boshlaridanoq Marko Poloning kashfiyotlari orqali Sharq haqida muayyan tasavvurga ega bo'lgan edi. Polo narsalarni oshirib tasvirlashda mubolag'a usulidan foydalanib, ayniqsa, raqamlarni haddan tashqari ko'paytirib yozar edi. Shunday qilib, yozuvchilar Sharqni tasvirlashda katta miqdordagi taxminiy raqamlarga tayandilar. Polo o'zining hikoyalarida shaharda o'n ikki mingta ko'pri va o'n ikki ming yetti yuzta orol borligini yozadi. Uning davomchilari ham ustozining bu mubolag'asini saqlab qolganlar. Ehtimol sayohatlari tafsilotlarini qog'ozga tushirgan bu yozuvchilar imkon qadar dalillarga asoslanib yozishga harakat qilgan bo'lsalarda, biroq ularning ko'proq xayol og'ushiga sho'ng'iganliklari sezilib turadi. Shunday asarlardan biri sirasiga kiruvchi Jon Mandevilning 1499-yili Angliyada chop etilgan mashhur "Safar va sayohatlar" ("The Voyages and Travels") kitobidir. U o'zida turli masal va afsonalarni jamlagan. Kitobda muallifning Sharq mamlakatlari bo'ylab qilgan sayohati tasvirlansa-da, biroq asar quruq tafsilotlardek tasavvur uyg'otadi. 1322-yili Jon Mandevil dengiz sayohati davomida Turkiya, Tartariya mamlakatlari, xususan, Xiva, Buxoro va Qo'qon xonliklari, Forsiylar imperiyasi, Suriya, Arabiston, Misr, Efiopiya va Hindiston kabi qator yurtlarni kezib chiqib, ular haqida kitoblar yozdi. Yevropada Uyg'onish davri shakllanishida Sharq ilm-ma'rifatining ahamiyati beqiyos ekanligini o'z tadqiqotlarida ta'kidlagan olim Fozila Sulaymonova "Sharq va G'arb" kitobida bu haqida shunday mulohaza yuritadi: "Ipak yo'li" faqat Sharq

va G'arb o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar vositasi emas, ayni chog'da Yevropani ma'naviy uyg'otgan hayotbaxsh yo'l ham bo'ldi. Ya'ni "Markaziy Osiyoda, xususan Samarqand, Buxoro, Xiva, Farg'ona, Kesh, Termiz kabi shaharlarda oylab, yillab istiqomat qilgan, ajnabiy savdogarlar xalqimizning turmush tarzi, urf-odatlar va ma'naviyatga xos qirralarini o'rganib, ma'qul bo'lganlarini o'z yurtlariga borib targ'ibot qilishga harakat qilganlar" [Sulaymonova F., 1998; 24].

1368-yili mo'g'ullar imperiyasi barham topgach, Xitoyning G'arb bilan aloqalari keskinlashdi. Yevropa sharqiy mamlakatlarning boyliklariga ko'z olaytira boshladi. Angliyaliklarning ipak va dorivor o'simliklar savdosiga qiziqishi yanada ortib, ingliz sayyohlari dengiz yo'llari orqali Sharqqa yetib borishdi. 1497-yilning boshlarida italiyalik dengizchi Jon Kebot Sharqdagi savdo ishlariga qiziqib, kemada shimoliy g'arb yo'lini izlagancha, Bristoldan Sharq mamlakatlari tomon suzib bordi. XVI asrga kelib bundayin sayohatchilar soni tobora ortdi. Ular sirasiga Kebotning o'g'li Sebastian (Sebastian, 1553), Ser Xyu Uillobi (Sir Hugh Willoughby, 1553), Martin Frobisher (Frobisher, 1560) va Entoni Jenkinson (Anthony Jenkinson, 1565)lar kiradi. 1600-yili Yelizaveta I ning ko'rsatmasiga binoan, "Britaniya–Sharq–Hindiston" (The British – East – India) kompaniyasi tashkil topib, britaniyalik savdogarlar Sharq bilan savdo-sotiqni rivojlantirish orqali serdaromad ishni yo'lga qo'yishdi. Kompaniya Hindiston bozorida monopoliyani yuzaga keltirdi. Savdogar-sayyohlardan qolgan nomalar Jon Mandevil va uning davomchisi Richard Xaklitning kitoblariga qaraganda, ancha haqqoniy va ishonarli yozilgan edi. Mazkur adabiyotlarga ko'ra, Yelizaveta va qirol Styuartlar davrida Arabiston, Eron, Turkiya va qolgan sharqiy elatlar qatorida Xitoy ham sezilarli rol o'ynamaydi [Appleton W.W., 1951; 19].

Savdogarlar sayohatlari davomida sehrli Sharq ertaklari, dostonlari va hikoyalarini tinglab, maftun bo'ldilar. Natijada ingliz va fransuz tijoratchilarining ongu shuurida, xayolot olamida o'zgacha to'ntarish yuz berib, yurtlariga bir dunyo taassurotlar bilan qaytdilar. Buyuk Britaniya Markaziy Yevropadan umidini uzib, okeanorti mamlakatlariga ko'z tika boshladi. Angliyada yuksalishlar sur'ati jadallashgan edi. Inglizlar ustomonlik bilan azaliy dushmani Fransiya kashf qilgan sharqona adabiyotlarni ham qo'lga kiritib, dovruq qozondilar.

Jan Antuan Gallanning 1704–1711-yillari Fransiyada "Les Mille et une Nuits" nomi bilan bosqichma-bosqich chop etilgan "Ming bir kecha" arab ertaklari yevropalik kitobxonlarni hayratda qoldirgani haqida fransuz adabiyotshunosi Pol Azard (Paul Hazard, 1878–1944) shunday deydi: "When Scheherazade began to recount her stories of the night, to unfold the infinite wealth of an imagination enriched with all the dreams of Araby, of Syria and the great Levant; when she began to tell of the manners and customs of the peoples of the East, their religious ceremonies, their domestic habits, the details of their dazzling and colourful existence; when she showed how mankind could be held and enthralled, not by abstruse intellectual ideas, nor by recondite reasoning, but by the charm of colours and the lure of fairy tales, all Europe was fain to stop and listen" [Hazard P., 2013; 363]. Ushbu fikrlardan anglashiladiki, Shahrizoda o'zining tungi ertaklarini hikoya qilishni boshlar ekan, xayolotning bepoyon kengliklari arab mamlakatlarida ro'y bergan ajoyibotlar bilan boyiydi. U Sharq xalqlarining fe'l-atvori

va urf-odatlari, ularning diniy marosimlari, kundalik yumushlari, yorqin va rang-barang hayoti haqida soʻzlaydi. U qanday qilib insoniyatni hech qanday murakkab intellektual gʻoyalarsiz yoki mavhum asoslarsiz maftun etishni namoyish qilib, ularni ertaklar olamiga shaydo qildi. Butun Yevropa arab ertaklarini bajonidil tinglardi.

Antuan Gallan ilk bor 1690-yili Konstantinopolda “Dengizchi Sinbod qissasi” deb nomlangan qadimiy qoʻlyozmaga duch kelib, 1701-yili uning fransuz tilidagi versiyasini chop qildi [Mack R.L., 2009; 23]. Muvaffaqiyatli kutib olingan asar tarjimonni XIV asrga tegishli “Ming bir kecha” qissalarini tarjima qilishga undadi. 1704-yili “Mille et Une Nuit” nomi bilan asarning ilk ikki bobi fransuz tilida paydo boʻldi. Qissaning soʻnggi oʻn ikkinchi bobi tarjimasi esa 1717-yili tarjimon vafotidan soʻng nashrdan chiqdi. Gallanning muvaffaqiyati shunda ediki, u asarni oʻz zamonasi kitobxonlari didiga moslab tarjima qilgandi. Mutarjimning mahorati haqida Xorxe Luis Borxes oʻzining “Ming bir kecha” qissasining tarjimonlari” (“The Translators of The Thousand and One Nights”) deb nomlangan kitobida shunday yozadi: “Another fact is undeniable. The most famous and eloquent encomiums of The Thousand and One Nights – by Coleridge, Thomas de Quincey, Stendhal, Tennyson, Edgar Allan Poe, Newman – are from readers of Galland's translation. Two hundred years and ten better translations have passed, but the man in Europe or the Americas who thinks of the Thousand and One Nights thinks, invariably, of this first translation. The Spanish adjective *milyunanochesco* [thousand-and-one-nights-esque]... has nothing to do with the erudite obscenities of Burton or Mardrus and everything to do with Antoine Galland's *bijoux and sorcerie*” [Borges J.L., 1999; 98]. Bu kabi muhim faktlarni inkor qilib boʻlmasligini taʼkidlagan muallif “Ming bir kecha”ning eng mashhur va soʻzga chechan madhiyachilari Kolrij, Tomas De Kvinsi, Stendal, Tennison, Edgar Allan Po, Nyuman ham Gallan tarjimasini mutolaa qilishganini izohlaydi. Oradan ikki yuz yil oʻtdi va oʻnlab yaxshi tarjimalar yaratildi. Biroq Yevropa va amerikaliklar “Ming bir kecha” hikoyalarini birinchi tarjima orqali tasavvur qildilar. Yuqoridagi mulohazalardan Byorton yoki Mardrusning tafakkuri bilan hech narsa qilib boʻlmasa, Antuan Gallanning bebaho va sehrli qobiliyati bilan hamma narsa qilish mumkin edi. Chunki Gallan tarjima jarayonida ertakdagi beadab sahnalarni qisqartirib bergan.

XVIII asrda fransuz tilidan ingliz tiliga tarjima qilingan “Ming bir kecha” ertaklari goʻyo angliyaliklar tomonidan Yevropa adabiyotiga olib kirilgandek notoʻgʻri talqin etildi. Fransiya, nafaqat Angliyaga sharqona urugʻlarni sochdi, balki Sharq xayolotining insoniyat bilgan va bilmagan bilimlari oʻrtasidagi chegarani topdi. Bu yerda sharqlik millat va elatlarning ayni chegarasi nazarda tutilmayapti, sayohatlar davomida sodir boʻlayotgan adabiy almashinuvlar va “Ming bir kecha” turkum ertaklarining asl magʻzini chaqish xususida ham gap bormoqda. Fransiyalik sharqshunos olim Pirr Martino taʼkidlaganidek: “Adabiy Sharq” deganda faqat “Osiyo” emas, balki muqaddas yerlarni oʻz ichiga olmaydigan hadsiz va shakl-shamoyilsiz mamlakatlar ham tushuniladi. Bu esa “adabiy Sharq” deganda, bitta joyni tushunish kerak emasligini anglatadi. Garchi muqaddas yerlar, haqiqatan ham Sharqqa tegishli boʻlsa-da, yevropalik kitobxon oʻzining muqaddas yerlar bilan bogʻliq diniy qarashlari negizidagi adabiy Sharqning gʻayrioddiylikini hazm qila olmaydi. Bundan tashqari,

u hozirda zavq olayotgan o'sha "g'ayridinlar" bilan uning ajdodlari bu maydonda kurashgan" [Martino P., 1906; 19].

Nihoyat, "adabiy Sharq" sharqiy Yevropa xalqlari va O'rta Yer dengizi atrofidagi ayrim mamlakatlar, hatto, Gresiya va Afrikaning shimoliy hududlariga ham kirib keldi. Uilyam Bekford 1781-yili Parijda quyidagilarni yozadi: "Bu makon sharqona adabiyotning vatanidir. Mening sevimli poemalarim – mangulik favvorasini izlagan Iskandarning ekspeditsiyasi hamda "Layli va Majnun"ning ta'sirli hikoyalarini qayta-qayta o'qigim keladi" [Melville L., 1910; 103].

Demak, ilk bor arab tilidan fransuzchaga tarjima qilingan "Ming bir kecha" ertaklari Yevropa adabiyotida katta burilish yasadi. Fransiyada boshlangan romantik harakatlar Angliya bo'ylab tarqaldi. Arab ertaklarining ohangrabosi fransuz va ingliz yozuvchilariga misli ko'rilmaz darajada yuksak ilhom bag'ishladi. Ularning Sharq olamiga bo'lgan qiziqishlari tobora ortib, yana boshqa adabiyotlar orqali sharqiy mamlakatlarning geografiasini, tabiati, urf-odatlarini-yu an'analari, tarixiy shaxslari va milliy qadriyatlarini o'rganishga da'vat etdi. Natijada ijodkorlar romantik ruhdagi yangidan-yangi asarlar yozishni boshladi. O'z navbatida, Angliyada XVIII asrning oxirlarida "Ko'l maktabi" shoirlari Sauti, Kolrij va Vordsvortlar o'zlarining sharqona xususiyatlarga boy ijodlari bilan ingliz adabiyotida romantizm davrini boshlab berdilar.

Gallan tarjimasidagi "Ming bir kecha" qissalarini fransuz tiliga asliyatdagidek o'girilgan, deyish mushkul. Ayrim adabiyotshunoslar ko'plab qisqartirish va o'zgartirishlarga duch kelgan tarjimani tarjimonning mualliflik ishi sifatida ham baholaydilar. Arab ertaklari nihoyatda tezlik bilan Yevropa bo'ylab tarqalib, ko'plab kitobxonlarning qalbidan chuqur joy olgandi: "... Pirated editions at once appeared in the Netherlands; there were many European versions made from it.... Galland was a born storyteller and he was able to adapt these Oriental tales not only to the taste of the France of his time but to the universal story-reading public of all countries and times. Some of his versions have been rendered back into Oriental languages and received with favour in the east. It cannot be claimed that he was a faithful translator – no one in his time was – and his recasting belongs more to French than to Arabic literature" [Encyclopedia Britannica, 1959; 157]. Bundan kelib chiqadiki, o'sha paytlarda arab ertaklarining Niderlandiyada o'g'rincha chop etilgan varianti paydo bo'ldi. Undan ko'plab yevropaliklar foydalandilar. Gallan tug'ma yozuvchi sifatida o'z davrida Sharq ertaklarini nafaqat fransuzlarning didiga moslab, balki barcha xalqlar va zamonlarda o'qiladigan universal tarjima asari yaratgandi. Uning ba'zi tarjimalari yana sharqiy tillarga o'girilib, ijobiy qabul qilindi. U tarjima davomida asarga qayta ishlov berib, arab adabiyotidan ko'ra, fransuz adabiyotiga yaqin asarni vujudga keltirgan edi.

Shuningdek, Gallan tarjima jarayonida faqat birgina asl nusxadan foydalanmagan. O'zi istamasa-da, turli qaroqchilik yo'li bilan chop etilgan variantlarni va boshqa manbalarni ham ko'rib chiqqan. Natijada uning "Mille et Une Nuit" qissasi asliyatdan ancha farq qiladi va turkum qissalar ro'yxatidan endi yangi ertaklar ham joy oldi. Ular sirasiga hali-hanuz mashhurlik shohsupasidan tushmay kelayotgan – "Alovuddin va uning sehrli chirog'i" va "Alibobo" qissalari kiradi.

NATIJA VA MULOHAZALAR

Ingliz kitobxonlari “Ming bir kecha” qissalarini katta zavqu shavq bilan mutolaa qildi. Ular asarni fransuzlardan kam kutib olgani yo‘q. Qissaning ilk inglizcha tarjimasini qachon va kim qilgani noaniq bo‘lsa-da, 1707-yilning boshlarida Gallanning olti boblik asari asosida noma’lum mutarjim tomonidan uzun va tavsifiy nom [Volume I. Arabian Nights] ostida inglizcha varianti paydo bo‘ldi [Macdonald D. B., 1952; 407]. Ayrim adabiyotshunoslar “Ming bir kecha” qissalarini birinchi marta ingliz tiliga o‘g‘irgan tarjimonni “The Grub Street Translator” nomi bilan atashadi. Aynan u hozirgacha arab qissalari uchun ingliz adabiyotida foydalanib kelinayotgan “The Arabian Nights Entertainment” sarlavhasini kashf qilgan. Hattoki bu nom asarning Kalkuttadagi 1839-1842-yillardagi nashrlari uchun ingliz tilidan arabchaga qayta o‘g‘irilgan [Macdonald D. B., 1952; 406]. Gallan tarjimasidan so‘ng to‘qqiz yil o‘tib, 1713-yilda ertakning inglizcha versiyasi to‘rt marta nashrdan chiqdi. Ushbu variant XVIII asrda ham deyarli qo‘shimcha va o‘zgarishlarga yuz tutmadi. Faqat 1799-yilda asarning yangi tarjimasini taqrizchisi quyidagilarni kuzatadi: “The merit of these pleasing and innocent stories, which have so frequently amused our childhood, nor have yet lost their affect upon us, had induced the publisher to attempt a reformation of the wretched translation into which they have been done now near a century” [Keymar T., 1998; 55]. Bolalik davrlarida ularni benihoya vaqtichog‘ qilgan, yoiniki hali-hanuz o‘z qadr-qimmatini yo‘qotmagan munis va dilkash hikoyalar noshirni yaxshi chiqmagan eski tarjima ustida qayta ishlashga undagan edi.

“Ming bir kecha” qissalari angliyalik ijodkorlarga chuqur ta’sir qilgan, zero ular bolalik chog‘laridan to‘yog‘a yetgunlariga qadar sir-sinoatlarga to‘la Sharq ertaklari ohangida ulg‘aydilar. Ularning ongu shuurini qamrab olgan o‘sha xayollar ta’sirida o‘z asarlarini yozdilar. Ijodkorlarning bu boradagi fikr-mulohazalariga qisqacha to‘xtalamiz. Tarixchi Eduard Gibbon (Edward Gibbon, 1737–1794) 1789-yili yozishni boshlagan avtobiografik asarida shunday deydi: “Before I left Kingston school I was well acquainted with Pope's Homer and the Arabian Nights' Entertainments, two books which will always please by the moving picture of human manners and specious miracles...” [Gibbon E., Saunders D.A., 1961; 61]. U Kingston maktabini tamomlashidan oldin insoniyat xulq-atvori va g‘ayritabiyy mo‘jizalar tasviri bilan ko‘ngilni xush etadigan ikki kitob – Popning “Homer” dostoni va “Ming bir kecha” qissalari bilan chuqur tanishib chiqqanini qayd etadi.

O‘zining sharqona qissasi “Vatek” (“Vathek”, 1786) bilan nom qozongan Uilyam Bekford (William Beckford, 1760–1844) ham yoshlik paytlarida “Ming bir kecha”ni mutolaa qiladi. Asar shoir hayotida muhim rol o‘ynaganligi haqida uning biografi shunday yozadi: “He read and re-read these stories with avidity, and the impression they made on him was so strong that Lord Chatham instructed Lettice that the book must be kept from him. The precaution came too late... the Oriental tales had taken possession of the impressionable reader... They had fired his youthful mind and held his imagination captive; their influence over him never waned all the days of his life...” [Melville L., 1910; 20]. Uning yodga olishicha, u hikoyalarni nihoyatda sabrsizlik bilan qayta-qayta o‘qib chiqadi. Asar unda shunchalar kuchli taassurot

uyg‘otgandiki, oxiri lord Chatam kitobni undan olib qo‘yish kerakligi haqida Lettisga ko‘rsatma beradi. Ehtiyot chorasini ko‘rishga endi juda kech edi. Sharqona ertaklar hassos kitobxonning ongiga o‘rnashib, yoshgina qalbga o‘t solgancha, uni o‘ziga butunlay asir qilib olgan edi. Asarning ta’sir kuchi shoir umrining qolgan qismida ham zarracha kamaymadi.

Bekfordning zamondoshi, Angliyada romantizm davri asoschilaridan biri Uilyam Vordsvort (William Wordsworth, 1770–1850) ham tengdoshlari qatori Sharq ertaklariga mahliyo bo‘lgandi. Vordsvort o‘zining “Muqaddima” (The Prelude, 1799–1805) poemasi “Ming bir kecha” kitobining bir tomini qanday qilib avaylab-asragani va qolgan qismlarini topishda qanchalar tushkunlikka tushganini eslaydi:

A precious treasure had I long possessed,
A little yellow, canvas-covered book,
A slender abstract of the Arabian tales;
And, from companions in a new abode,
When first I learnt, that this dear prize of mine
Was but a block hewn from a mighty quarry -
That there were four large volumes, laden all
With kindred matter, 'twas to me, in truth,
To make this book our own. Through several months,
In spite of all temptation, we preserved
Religiously that vow; but firmness failed,
Nor were we ever masters of our wish [Wordsworth W., 1970; 126].

Tarjimasi:

Mitti sarg‘ish, kanob jild kitob,
Arab ertaklarin mavhum bir qismin -
Xazinam misoli asrab-avaylam;
Yangi o‘lkadagi hamrohlarimdan,
Angladim, shu erur ko‘nglim gavhari.
Lek bu ov o‘ljasi bo‘lingan to‘rtga –
To‘rt jildan iborat emishdir alar,
Haqiqat tobora bo‘lmishdir ayon,
Ahd-paymon tuyular bazo‘r, dargumon.
Shul kitob egasi bo‘lmoqlik uchun.

Sarflab qancha oylar,

Nafs quli bo‘lmay, saqladik –

Tangriga sodiqligimiz; Lek sindi qat‘iylik,

Derlar: – Banda aytganlari bo‘lmaydi ro‘yob [Tarjima muallifniki].

Vordsvort bu misralar orqali o‘zining Sharq olamiga bo‘lgan qiziqishini ifodalab, bu boradagi manbalarni tengsiz boylikka mengzaydi. Unda arab ertaklarini topib o‘qish uchun kechirgan mashaqqatlari, ba’zan tushkunlikka tushib qolgani haqida ham so‘z boradi.

Angliya adabiyotida romantik harakatlar asoschilaridan bo‘lmish Kolrij o‘zining 1801–1816-yillar oralig‘ida yozgan siyosiy va falsafiy ocherklari jamlagan

“Munosabat” (“The Friend”) kitobida bolalik chog‘laridayoq arab ertaklariga mehr qo‘yganini shunday tasvirlaydi: “Besh yoshga to‘lgunimga qadar ushbu ertaklarning bir jildini qayta-qayta mutolaa qilganim bois, butun xayolim va hissiyotlarim nima bilan band bo‘lganini tasavvur qilish oson. Kitob hali-hanuz esimda, xudojo‘y otamning ibodatxonasi yaqinidagi mehmonxona oynasi burchagida yotardi. Tushunarsiz vahima va kuchli xohish ichimda qorishib, o‘sha kitobga qarashga, to tonggi quyosh nurlari tushib, uning ustini qoplab olguniga qadar tomosha qilishga jur‘at qilganim hamon yodimdan chiqmaydi. Shunday qilib, bu bebaho xazinani qo‘limga olishga jur‘atni sezdim, uni ushladim-u o‘yingohdagi charog‘on burchak tomon chopdim” [Coleridge S.T., 1812; 91].

Natijada Kolrij arab ertaklari ta‘sirida ko‘plab asarlarini bitdi. Ulardan biri “Qari dengizchi afsonasi” (“The Rime of the Ancient Mariner”, 1798) bo‘lib, bu haqida muadllif shunday yozadi: “Mrs Barbauld once told me that she admired the Ancient Mariner very much, but that there were two faults in it – it was improbable and had no moral. As for the probability, I owned that that might admit some question; but as to the want of a moral, I told her that in my judgement the poem had too much; and that the only, or chief fault, if I might say so, was the obtrusion of the moral sentiment so openly on the reader as a principle or cause of action in a work of such pure imagination. It ought to have had no more moral than the Arabian Nights’ tale of the merchant’s sitting down to eat dates by the side of a well, and throwing the shells aside, and lo! a genie starts up, and says he must kill the aforesaid merchant, because, one of the date shells had, it seems, put out the eye of the genie’s son” [Jackson H.J., 1992; 594]. Ya‘ni, kunlarning birida missis Barbo “Qari dengizchi”ni sevib o‘qiganligi xususida gapirib, asarda ikkita kamchilik borligini aytadi: ularning biri – haqiqatdan yiroqlik va ikkinchisi – beodoblik illati. Muallif birinchi kamchilik xususida to‘xtab, o‘zi ham bu to‘g‘rida ko‘p o‘ylashini tan oladi. Lekin axloq masalasiga kelsak, u poema juda katta ekanligi, aytish lozim bo‘lsa, asosiy va katta xato – kitobxonning sof xayoloti bilan ishlashdagi sa‘y-harakatlar oqibati yoki tamoyillari kabi ochiq-oshkora ularning hislarini chalg‘itish bo‘lganligini izohlaydi. Agar “Ming bir kecha” kitobidagi axloqiy holatlar bilan solishtirilsa, ertakdagi savdogar quduq boshida o‘tirgancha xurmo yeb, po‘chog‘ini suv tomonga otadi. Ana sizga, beadablik! Jin paydo bo‘lib, boyagi savdogarni o‘ldirish uchun kelganini so‘zlaydi. Chunki u yeb har yonga uloqtirgan xurmo urug‘i jin o‘g‘lining ko‘ziga kirib ketgan edi. Bu yerda shoir o‘z asarining axloqiy jihatlarini arab ertagi bilan taqqoslab, poemasining afzal tomonlarini ko‘rsatishga urinadi. Shuningdek, Kolrijning so‘zlaridan uning ertaklarni naqadar sinchkovlik bilan mutolaa qilganini anglash mumkin.

Mashhur ingliz shoiri Bayron ham “Ming bir kecha” ertaklarini o‘smirlik paytlaridan mutolaa qila boshlagan. Londonda tug‘ilib o‘sgan yozuvchi va tanqidchi Isaak Dizraeli “The Literary Character” (1818) nomli asarida Bayron Sharq haqida ma‘lumotlar to‘plagan britaniyalik tarixshunos olim Pol Rikot (1628–1700) hayoti va ijodiga qiziqqanini yozib qoldiradi. Bayron o‘zidagi “The Literary Character” kitobi nusxasining hoshiyasiga shunday so‘zlarni bitadi: “Nolles – Kantemir – De Tott – Ledi Meri Montegyu – Xokinsning “Turkiya tarixi” tarjimasi – “Ming bir kecha” – Sharq

olamiga bag'ishlangan barcha sayohatnomalari tarixiy kitoblarni, shuningdek, Rikot asarlarini o'n yoshimga qadar o'qib chiqdim. Adashmasam, eng avvaligisi "Ming bir kecha" edi" [Davis H., 1940; 91]. Bundan ma'lum bo'ladiki, o'zining sharqona qissalari bilan shuhrat qozongan Bayron ham, avvalo, arab ertaklarini o'qib, Sharq haqidagi dunyoqarashini shakllantirgan. Bayron arab ertaklariga nisbatan qiziqishi umrining oxiriga qadar so'nimganligi haqida keyinchalik ham yozib qoldiradi.

XULOSA

Ingliz romantizm davri adabiyoti shakllanishida arab mifologiyasining o'zni beqiyos. Arab ertaklarining G'arb tillariga tarjima qilinishi natijasida adabiyotda yangicha kayfiyat va ruhiyat paydo bo'ldi, ijodkorlarni Sharq dunyosiga oid yana boshqa ko'plab manbalarni tadqiq qilishga undadi. Bu esa o'z o'rnida romantik ruhdagi sharqona asarlarning yozilishiga sabab bo'lib, ingliz adabiyotida yangi davr boshlanishiga zamin yaratdi.

"Orientalizm" konsepsiyasining paydo bo'lishi xususida bahs yuritgan g'arblik tadqiqotchilar Sharqni har tomonlama – geografik, tarixiy, madaniy, iqtisodiy, adabiy jihatdan tadqiq etishdi. Natijada akademik yoki universitet fan yo'nalishlari darajasidagi Sharq mavzusiga oid ixtisoslik yuzaga keldi.

XVIII–XIX asrlar romantizm davrida orientalizm hodisasi Sharq adabiyoti bilan uzviy bog'lanib, u o'z ichiga sharqona qissalar, ertak, hikoya, afsonayu dostonlarni qamrab oldi. Buning sababi – Jan Antuan Gallan (Jean Antonio Galland, 1646–1715) tomonidan "Ming bir kecha" arab ertaklarining fransuz tiliga tarjima qilinishidir.

XVIII asrning birinchi yarim yilligida nasriy asarlarda didaktizm ustunlik qiladi. Unda sharqona hayotga xos masalalar, siyosiy satiralar, masallar va Angliyaning asl holatini tasvirlaydigan esselar muhim o'rin tutadi. Asta-sekin ingliz romantizm she'riyatiga kirib kelgan Sharq adabiyotiga oid mavzular shoirlar ongu shuurini egallab, ularning asarlarini yangi g'oya va rang-barang mavzular bilan boyitdi. Bunda arab ertaklari turkumidan bo'lgan "Ming bir kecha"ning o'zni beqiyos. Ushbu Sharq ertaklari kichik hajviy p'esarlar, feyneriya (ertak syujetiga asoslangan teatr yoki sirk tomoshasi) va komik opera janrlarini o'zgacha ruhdagi g'oyalar bilan to'ldirib, sharqona uslubdagi liboslar va syujetlar keng omma e'tiborini o'ziga jalb qildi. Shunday ruhdagi feyneriyalar XIX asr teatr sahnalarida yanada avj olib, ayniqsa, dramaturglar Jeyms Robinson Planch (James Robinson Planche), Eduard Blanchard (Edward Blanchard), Uilyam Brou (William Brough), Mark Lemon (Mark Lemon) va Uilton Jons (Wilton Jones)larning asarlarida keng qo'llanildi.

Kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, ingliz romantizm she'riyatida orientalizm tasavvur kengliklaridagi erkinlikka tashnalik va cheksizlikka ehtiyojni ifodalaydi. Sharqona ruhdagi romantik she'riyat o'zining hadsiz bahs-munozaralari, ohangi va tasviriy uslublari bilan o'ziga ajralib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abrams, M.H., Greenblatt, S.J. (2000). *The norton anthology of English literature* (7th ed.) (Vol. 2). New York: W.W. Norton & Company.

2. Aers, D., Cook, J., Punter, D. (2017). *Romanticism and ideology: Studies in English writing 1765-1830* (202 p.). New York: Routledge.
3. Allis, M. (2014). *Bantock and Southey: Musical otherness and fatalism in "Thalaba the destroyer"* (40 p.). Oxford: Oxford University Press.
4. Appleton, W.W. (1951). *A cycle of cathay: The Chinese vogue in England during the seventeenth and eighteenth centuries*. New York: Columbia University Press.
5. Arnold, T.W., Guillaume, A. (1931). *The legacy of Islam*. Oxford: The Clarendon Press.
6. Assibai, M. (1979). *Orientalism and orientalis: their pros and their cons* (Al-Istishraqwa Al-Mustashriqun: Ma Lahum WaA'leihum). Beirut: Al-Maktab Al-Islami.
7. Bate, W.J. (1968). *Coleridge* (Masters of world literature series) (244 p.). New York: Macmillan.
8. Bernhardt-Kabisch, E. (1977). *Robert Southey* (198 p.). Boston: G.K. Hall.
9. Bloom, H., Trilling, L. (1973). *Romantic poetry and prose*. Oxford: Oxford University Press.
10. Bodkin, M. (1965). *Archetypal patterns in poetry. Psychological studies in imagination* (340 p.). England: Oxford University Press.
11. Borges, J.L. (1999). *"The translators of the thousand and one nights" in the total library*. New York: Penguin.
12. Cawley, R.R. (1938). *The voyagers and Elizabethan drama* (452 p.). New York: Periodicals Service Company.
13. Chew, C.Ch. (1937). *The crescent and the rose: Islam and England during the Renaissance* (583 p.). Oxford: Oxford University Press.
14. Chisholm, H. (1911). *Encyclopedia Britannica* (11th ed.) (672 p.). England: Encyclopedia Britannica Company.
15. Coleridge, S.T. (1812). *The friend: A series of essays* (448 p.). London: Printed for Gale and Curtis.
16. Coleridge, S.T. (1985). *Biographia literaria* (866 p.). New Jersey: Princeton University Press.
17. Conant, M.P. (1906). *Oriental tale in England in the eighteenth century* (1st ed.). London: Routledge.
18. Crane, R.S. (1922). *An early eighteenth-century enthusiast for primitive poetry: John Husbands* (211 p.). Maryland: The John Hopkins University Press.
19. Cutmore, J. (2016). *Contributors to the quarterly review: A history, 1809-25*. New York: Routledge.
20. Davis, H. (1940). *Nineteenth-century studies* (303 p.). New York: Cornell University Press.
21. Davy, H., Davy, J. (1840). *The collected works of Sir Humphry Davy* (426 p.). New York: Johnson Reprint Corp.
22. Dowden, E. (1879). *Letters of Edward Dowden and his correspondents* (448 p.). London: J. M. Dent & Sons.
23. Dowden, E. (1879). *Southey in English men of letters* (210 p.). London: Macmillan.
24. Gerhardt, M.I. (1963). *The art of story-telling: A literary study of the Thousand and One Nights*. Leiden: E.J. Brill.
25. Gibbon, E. (2001). *The history of the decline and fall of the Roman empire* (795 p.). London: Penguin Classics.
26. Gibbon, E., Saunders, D.A. (1961). *The autobiography of Edward Gibbon* (224 p.). New York: Meridian Books.
27. Gill, S. (1989). *William Wordsworth: A life* (586 p.). Oxford: Oxford University Press.
28. Gray, W. (1985). *Homer to Joyce*. London: Macmillan.
29. Qurbonov, P. (2019). Bayron ijodida Sharq va sharqona motivlar tavsifi (qiyos va tarjima). *Fil. fanl. fal. dok. dis. avtoref.* Samarqand.
30. Said, E.W. (1985). *Orientalism* (368 p.). London: Penguin.
31. Smalley, B. (1983). *The study of the Bible in the middle ages*. England: Oxford publisher.

32. Steven, W. H. (2006). *Orientalism, assyriology and the Bible, Hebrew Bible monographs*. Sheffield: Sheffield Phoenix Press.
33. Taj, M.K. (2014). *Orientalism: Its meaning, its philosophy and its methods* (306 p.). Kuwait: Al-Arabi Linnashri Wa Attawzi.
34. Taylor, S. (2017). *Orientalism in the Romantic era*. Wiley Online Library.

REFERENCES

1. Abrams, M.H., Greenblatt, S.J. (2000). *The norton anthology of English literature* (7th ed.) (Vol. 2). New York: W.W. Norton & Company.
2. Aers, D., Cook, J., Punter, D. (2017). *Romanticism and ideology: Studies in English writing 1765-1830* (202 p.). New York: Routledge.
3. Allis, M. (2014). *Bantock and Southey: Musical otherness and fatalism in "Thalaba the destroyer"* (40 p.). Oxford: Oxford University Press.
4. Appleton, W.W. (1951). *A cycle of cathay: The Chinese vogue in England during the seventeenth and eighteenth centuries*. New York: Columbia University Press.
5. Arnold, T.W., Guillaume, A. (1931). *The legacy of Islam*. Oxford: The Clarendon Press.
6. Assibai, M. (1979). *Orientalism and orientalist: their pros and their cons* (Al-Istishraqwa Al-Mustashriqun: Ma Lahum WaA'leihum). Beirut: Al-Maktab Al-Islami.
7. Bate, W.J. (1968). *Coleridge* (Masters of world literature series) (244 p.). New York: Macmillan.
8. Bernhardt-Kabisch, E. (1977). *Robert Southey* (198 p.). Boston: G.K. Hall.
9. Bloom, H., Trilling, L. (1973). *Romantic poetry and prose*. Oxford: Oxford University Press.
10. Bodkin, M. (1965). *Archetypal patterns in poetry. Psychological studies in imagination* (340 p.). England: Oxford University Press.
11. Borges, J.L. (1999). *"The translators of the thousand and one nights" in the total library*. New York: Penguin.
12. Cawley, R.R. (1938). *The voyagers and Elizabethan drama* (452 p.). New York: Periodicals Service Company.
13. Chew, C.Ch. (1937). *The crescent and the rose: Islam and England during the Renaissance* (583 p.). Oxford: Oxford University Press.
14. Chisholm, H. (1911). *Encyclopedia Britannica* (11th ed.) (672 p.). England: Encyclopedia Britannica Company.
15. Coleridge, S.T. (1812). *The friend: A series of essays* (448 p.). London: Printed for Gale and Curtis.
16. Coleridge, S.T. (1985). *Biographia literaria* (866 p.). New Jersey: Princeton University Press.
17. Conant, M.P. (1906). *Oriental tale in England in the eighteenth century* (1st ed.). London: Routledge.
18. Crane, R.S. (1922). *An early eighteenth-century enthusiast for primitive poetry: John Husbands* (211 p.). Maryland: The John Hopkins University Press.
19. Cutmore, J. (2016). *Contibutors to the quarterly review: A history, 1809-25*. New York: Routledge.
20. Davis, H. (1940). *Nineteenth-century studies* (303 p.). New York: Cornell University Press.
21. Davy, H., Davy, J. (1840). *The collected works of Sir Humphry Davy* (426 p.). New York: Johnson Reprint Corp.
22. Dowden, E. (1879). *Letters of Edward Dowden and his correspondents* (448 p.). London: J. M. Dent & Sons.
23. Dowden, E. (1879). *Southey in English men of letters* (210 p.). London: Macmillan.
24. Gerhardt, M.I. (1963). *The art of story-telling: A literary study of the Thousand and One Nights*. Leiden: E.J. Brill.

25. Gibbon, E. (2001). *The history of the decline and fall of the Roman empire* (795 p.). London: Penguin Classics.
26. Gibbon, E., Saunders, D.A. (1961). *The autobiography of Edward Gibbon* (224 p.). New York: Meridian Books.
27. Gill, S. (1989). *William Wordsworth: A life* (586 p.). Oxford: Oxford University Press.
28. Gray, W. (1985). *Homer to Joyce*. London: Macmillan.
29. Kurbonov, P. (2019). Description of orient and oriental motifs in Byron's work (comparison and translation). *Abs. PhD thes. in phil.* Samarkand.
30. Said, E.W. (1985). *Orientalism* (368 p.). London: Penguin.
31. Smalley, B. (1983). *The study of the Bible in the middle ages*. England: Oxford publisher.
32. Steven, W. H. (2006). *Orientalism, assyriology and the Bible, Hebrew Bible monographs*. Sheffield: Sheffield Phoenix Press.
33. Taj, M.K. (2014). *Orientalism: Its meaning, its philosophy and its methods* (306 p.). Kuwait: Al-Arabi Linnashri Wa Attawzi.
34. Taylor, S. (2017). *Orientalism in the Romantic era*. Wiley Online Library.